

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

KIM DMITRIY VALENTINOVICH

**POMIDOR NAV VA DURAGAYLARINI TANLASH, KICHIK HAJMLI
GIDROPONIKADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQUISH (SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA)**

06.01.06–Sabzavotchilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on agricultural sciences**

Kim Dmitriy Valentinovich

Pomidor nav va duragaylarini tanlash, kichik hajmli gidroponikada etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish. (Sirdaryo viloyati sharoitida).....

Ким Дмитрий Валентинович

Подбор сортов и гибридов томата, разработка элементов технологии возделывания на малообъемной гидропонике (в условиях Сырдарьинской области).....

Kim Dmitriy Valentinovich

Selection of tomato varieties and hybrids, development of elements of cultivation technology in low-volume hydroponics (in the conditions of the Syrdarya region).....

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works

.....

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

KIM DMITRIY VALENTINOVICH

**POMIDOR NAV VA DURAGAYLARINI TANLASH, KICHIK HAJMLI
GIDROPONIKADA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQUISH (SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA)**

06.01.06–Sabzavotchilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2025

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Qx707 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sabpkiti@iim.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nizomov Rustam Axrolovich
Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Aramov Muzaffar Xashimovich
Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Rustamov Behzod Abdumalikovich
Qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy ko'chasi, 2-uy. Tel.:(+99871) 226-85-03; faks: (+99871) 226-85-03; e-mail: _____; Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin _____raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy ko'chasi, 2-uy. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 226-85-03).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil _____ № _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.R. Aripova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.f.d., (PhD)

F.F. Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, q.x.f.f.d., (PhD) k.i.x

A.J. Shokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, o'rinbosari
q.x.f.d.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi o‘n yilliklarda pomidor zamonaviy qishloq xo‘jaligi tizimida muhim o‘rin egallab kelmoqda. U nafaqat iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ekin, balki qimmatli biologik faol moddalarning manbai hamdir. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish uchun kichik hajmli gidroponika texnologiyasida issiqxonada pomidor yetishtirish usuli dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligining maqsadi ham dunyo bo‘yicha aholi soni va mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarining ortib borishini hisobga olgan holda, ocharchilik va qashshoqlikni bartaraf etish, kelajak avlodni toza va yangi mahsulotlar bilan ta‘minlashga qaratilgan. Kichik hajmli gidroponika usulida issiqxonada pomidor yetishtirish sabzavot yetishtiruvchilar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki bu texnologiyada har bir qarich yerdan olinadigan hosildorlik sezilarli darajada yuqori bo‘ladi, energiya resurslaridan samarali foydalaniladi hamda aholini yil davomida barra oziq-ovqat mahsuloti bilan ta‘minlash imkoniyati yaratiladi.

FAOSTATning¹. 2022 yilgi so‘nggi ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda jami issiqxonalar yer maydoni taxminan 7-8 million gektarni tashkil qiladi. Issiqxona maydonlarining ko‘pligi bo‘yicha Xitoy peshqadam bo‘lib, u yerda issiqxonalar maydoni 3,0-3,5 million gektarga etadi, bu dunyodagi issiqxona maydonlarining 60 foizini tashkil qiladi. Yevropada issiqxonalar yer maydoni 450 ming gektardan 520 ming gektargacha, Hindistonda 320 ming/ga, Turkiyada 75-80 ming/ga, Yaponiyada 68 ming/ga, Shimoliy va Janubiy Amerikada 67 ming/ga, Janubiy Koreyada 15-20 ming/ga, Gollandiyada 11 ming/ga, Rossiyada esa 4,8 ming/gani tashkil etadi. O‘zbekistonda himoyalangan yer maydoni 6,5 ming gektardan ortiq bo‘lib, shundan 1,6 ming gektari (17%) gidroponika usulida, 4,9 ming gektari (83 foizi) tuproqqa ishlov beriladigan issiqxonalarni tashkil etadi².

Gidroponika - tuproqsiz o‘simliklarni yetishtirishning zamonaviy va progressiv usuli hisoblanadi. Bu tuproqsiz sharoitda ekinlarni yetishtirish imkonini beradi. Ma‘lum o‘simlik turi uchun maxsus tayyorlangan ishchi eritma, uning tarkibi muvozanatlashtirilgan va kerakli miqdorlarda ozuqani o‘simliklarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri eritmadan yetkazib berish imkonini beradi. Xorijda, xususan, Yevropa, AQSh va Yaponiyada kichik hajmli gidroponika issiqxonalarda pomidor yetishtirish qishloq xo‘jaligida mashhur usul bo‘lib, cheklangan maydon va resurslardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Xorijiy mamlakatlarda pomidorni samarali va ekologik jihatdan barqaror yetishtirish uchun gidroponika texnologiyalari faol joriy etilmoqda. Bu usullar ham O‘zbekiston uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya izlanishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi VII – 4020-sonli qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi “Issiqxona komplekslarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha

¹ <https://www.fao.org/common-pages/search/ru>

² <https://www.agro.uz/ru/https-www-agro-uz-https-www-agro-uz-https-www-agro-uz-https-www-agro-uz-11-0085>

shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida³gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada hissa qo'shmoqda. issiqxona majmualari to'g'risida⁴gi va "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida⁴gi 2019-yil 20-martdagi VII – 4246-son., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-413-son qarori. 2022-yil 02-noyabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida⁵gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida⁶gi VII-60-son qarori. O'zbekiston Respublikasining 2020-2030-yillarda suv xo'jaligini rivojlantirish to'g'risidagi".

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Taxminan 19-asrda nemis botanigi F.Knop tarixda birinchi bo'lib ozuqa eritmasiga urug'larni ekib o'simlik yetishtirdi, Rossiyada esa K. A. Timiryazyev o'simliklarni noorganik birikmalarning suvli eritmalarida yetishtirish usulini ishlab chiqdi. Hidroponika yordamida sabzavot ekinlarini yetishtirish bo'yicha birinchi ilmiy-tadqiqot Kaliforniya universiteti professori U.Gerike tomonidan AQSH (1920-1930) tomonidan olib borilgan. Keyinchalik bu yo'nalishda D. N. Pryanishnikov (1936-1937), V. A. Chesnokov, E. N. Bazirina (1960), E. A. Aliyev (1971-1985) va respublikada M. A. Belousov, N. N. Balashev, G. O. Zeman (1935-1977), V. I. Zuyev. (1980), N.S. Bakuras (1986) tadqiqotlar olib borgan.

Hozirgi vaqtda kam hajmli substratlardan foydalanib sabzavot yetishtirish usuli chet ellarda (Gollandiya, Isroil, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Polsha, Bolgariya, Ispaniya va boshqalar) keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa bu usul nisbatan yaqinda joriy etilgan bo'lib, hali yetarlicha o'rganilmagan. Chunki respublikamizning iqlim sharoiti xorijiy mamlakatlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli xorijiy hududlar uchun ishlab chiqilgan suv va ozuqa rejimlari bo'yicha tavsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash mumkin emas. O'simliklar uchun substratlar tanlovi, ularning oziqlanishi va sug'orilishi bilan bog'liq barcha masalalarni aniq o'rganish talab etiladi.

AQShda Toodurin, Cowell C.; Kanadada HAO H. va Papadopoulos A.P; Rossiyada Yagovkin V.V.; Polshada Kowalska; O'zbekistonda esa Bakuras N.S. kabi olimlar tomonidan kichik hajmli gidroponika usulida pomidor etishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ular mineral paxta (mineral paxta), kokos tolasi (kokovit), yuqori sifatli torf, qum, vermikulit, perlit, keramzit kabi turli xil substratlardan foydalangan holda tajribalar o'tkazganlar.

³ <https://lex.uz/uz/docs/4068988>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-4249824>

⁵ <https://lex.uz/docs/6268941>

⁶ <https://lex.uz/docs/-5841063>

O‘zbekiston sharoitida bu usul hali keng tarqalmagan va yetarli darajada o‘rganilmagan. Sababi — mamlakatimiz iqlimi xorijiy tajriba o‘tkazilgan hududlardan farq qiladi. Shu bois suv rejimi, oziqlantirish va substrat ishlatish bo‘yicha tavsiyalarni avtomatik tarzda qo‘llash mumkin emas.

Savinova N.I. va boshqalar (Rossiya), shuningdek, Bakuras N.S. (O‘zbekiston) tomonidan issiqxona sharoitida yuqori hosilli pomidor navlari va duragaylarini tanlab olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Rossiyada S.I. Shunichev va boshqalar, O‘zbekistonda esa N.I. Pobedonostseva va boshqalar tomonidan turli ekish muddatlari va sxemalarida kam hajmli substratlarda pomidor yetishtirish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda M.U. Nizomova tomonidan Toshkent viloyati sharoitida gidroponika usulida pomidor yetishtirish texnologiyasi (sug‘orish me‘yorlari, mineral eritmalar berish me‘yorlari) bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Biroq, Sirdaryo viloyati sharoitida pomidorni kichik hajmli gidroponika usulida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan.

Ushbu dissertatsiyada Sirdaryo viloyati sharoitida pomidorni kichik hajmli gidroponika usulida yetishtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan. Tadqiqotlar quyidagilarga bag‘ishlangan: pomidor yetishtirish uchun mos substratlarni tanlash; pomidor navlari va duragaylarini saralab olish va ularni amaliyotga tatbiq etish; pomidorni ekish muddatlari va usullarini aniqlash, shuningdek, tomchilatib sug‘orish sharoitida kichik hajmli substratlarda pomidor ekish sxemasini aniqlash.

Mazkur usul, O‘zbekiston sharoitida tobora kengayib katta ahamiyat kasb etib bormoqda, chunki ushbu texnologiyada sho‘rlangan tuproqli hududlarda ham issiqxonalarda mahsulot yetishtirish imkonini beradi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti “Agrotuproqshunoslik va melioratsiya” kafedrasining 2021-2024-yillarga mo‘ljallangan “Mirzacho‘l vohasi tuproqlari unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tomchilatib sug‘orish usuli yordamida kichik hajmli gidroponika sharoitida pomidorni turli substratlarda yetishtirish texnologiyasini o‘rganish, istiqbolli pomidor navlarini tanlash, ekish va ekishning maqbul muddatlarini belgilash, kichik hajmli gidroponikada pomidor yetishtirishda o‘simliklarini joylashtirish sxemalarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Qishki-bahorgi mavsumda kichik hajmli gidroponikada pomidor duragaylarini F₁ etishtirishda turli xil substratlarning ta’sirini o‘rganish.

- xorijiy va mahalliy seleksiyaning istiqbolli pomidor navlarini kompleks baholash va kichik hajmli gidroponik issiqxonada muayyan sharoitlarda etishtirish uchun eng mosini tanlash.

- kichik hajmli gidroponikada etishtirishda pomidor urug‘ini ekish va ko‘chatlarini o‘tkazish uchun optimal muddatini aniqlash.

- yuqori sifatli tovar hosil olishda kichik hajmli gidroponikada pomidor duragaylarini F₁ joylashtirishning eng ma'qul sxemalarini belgilash.

- qishki-bahorgi mavsumda kichik hajmli gidroponikada pomidor yetishtirish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Pomidorning O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Gollandiya, Shveysariya, Isroil, Turkiya, Fransiya, Yaponiyadan tanlab olingan 35 nav va duragaylaridan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti quyidagilardir: turli substratlarni o'rganish; kam hajmli gidroponik issiqxonalarda pomidor navlari va duragaylarini tanlash; urug'larni ekish va ko'chat o'tkazishning optimal muddatlarini aniqlash, shuningdek, qish-bahor mavsumida kam hajmli gidroponik issiqxona sharoitida etishtirilayotgan pomidorlar uchun oziqlantirish maydoni va joylashtirish sxemasini belgilash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar "Методические рекомендации по проведению опытов с овощными культурами в сооружениях защищенного грунта" (Vashchenko S.F., Nabatov T.A., Rojanskaya O.D. va boshqalar, 1976), "Методика полевого опыта в овощеводстве и бахчеводстве" (Belik V.F., Bondarenko G. A., 1979), "Методические указания по агрохимическому обследованию тепличных грунтов". (Gluntsov N.M., Dmitrieva L.V., Shaxmatov V.P., va boshqalar, 1987), "Методика анализа процессов роста". (G. Krug, 2000), "Sabzavot va polizchilikda dala tajribalari metodologiyasi" (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), kabi uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida dispersion uslub B.A.Dospexov (1985) bo'yicha amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Sirdaryo viloyati issiqxonalari sharoitida tomchilatib sug'orish usulida kichik hajmli gidroponika usulida pomidor yetishtirish uchun eng samarali substratlar (perlit, vermikulit) aniqlangan. Perlit substratida mahsulot sotishdan olingan sof daromad 147290 so'm/m² ni, rentabellik darajasi esa 79,83% ni tashkil etgan;

qishki-bahorgi mavsumda kichik hajmli gidroponika issiqxonalari sharoitida pomidorning 35 ta nav va duragaylari F₁ o'rganildi; istiqbolli nav va duragaylar ajratib olindi: F₁ Lamiya, F₁ Torri, F₁ Fenda, F₁ Menxir, F₁ Vilasko, F₁ Videtta, F₁ 453206, F₁ 45G508, F₁ Bahor, F₁ Sayxun, F₁ Pink Paradays, Cherri Marvarid, Krasa Vostoka, Vitaminka Kokteylnaya hosildorligi 19,2-21,4 kg/m² ni tashkil etdi;

kichik hajmli gidroponika sharoitida pomidor yetishtirish uchun urug' ekish va ko'chat o'tqazishning maqbul muddatlari (10-noyabr va 20-yanvar) F₁ Sayxun duragayi bo'yicha 21,07 kg/m², F₁ Videtta duragayi bo'yicha 23,60 kg/m², F₁ Pink Paradayz duragayi bo'yicha 22,11 kg/m² ekanligi aniqlandi. Bu nazoratga nisbatan mos ravishda: 8,0%, 13%, 18% ga ko'pdir;

gidroponik issiqxonalarda pomidor o'simligining optimal oziqlanish maydoni (120+20×25sm-2.9 o'sim/m²) aniqlandi. Eng yuqori tovarbop hosil F₁ Sayxun 21,57 kg/m², F₁ Videtta 23,83 kg/m², F₁ Pink Paradayz 22,61 kg/m² duragaylarida olindi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ilk bor Sirdaryo viloyati issiqxona sharoitida 3 ta istiqbolli F₁ Sayxun, F₁ Videtta, F₁ Pink Paradayz duragaylarida torf (nazorat), kokos qipig'i, perlit, vermikulit, qum, mineral paxta eng samarali substratlar ekanligi aniqlangan. Turli substratlarda olib borilgan fenologik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, F₁ Sayxun, F₁ Videtta duragaylarida erta (75%) yoppasiga unib chiqish perlit substratida 5-kuni, F₁ Pink Paradaysda 6-kuni yoppasiga unib chiqish, uchala duragayda ham kechki unib chiqish qum substratida 8-kuni qayd etildi. Biometrik o'lchashlar shuni ko'rsatdiki, ommaviy unib chiqishning 90-kunida barcha uchta F₁ Sayxun, F₁ Videtta, F₁ Pink Paradayz duragaylarida eng baland asosiy poya perlit substratida (115 sm, 128 sm, 108 sm) bo'lgan. Hosil bo'lgan barglar soniga (21, 23, 21 dona), bo'g'im oraliqlarining uzunligi (3,3,-3,5,-3,3 sm), poyaning asos qismidagi diametri (1,2-1,2-1,2 sm), gul shingillarining soni (6-7-6), tovar hosil chiqimi (22,12-23,9-23,23 kg/m²), mevaning o'rtacha vazni (mos ravishda 152-156 g; 146-152 va 233-240 g) hamda mevalarning biokimyoviy tarkibi eng yuqori bo'lganligi qayd etildi;

kichik hajmli gidroponika sharoitida 35 ta nav va duragaylar o'rganildi. Ulardan eng istiqbolli 18 ta nav va duragaylar ajratib olindi. Fazalararo davrlar, ya'ni vegetatsiya davrining davomiyligi shunga bog'liq. Duragaylar orasidagi farqlar o'simliklar hayotining dastlabki kunlaridanoq kuzatilgan. Shunday qilib, F₁ Videtta, F₁ 453206, F₁ 45G508, F₁ Lamiya, F₁ Menxir, F₁ Torri, F₁ Vilasko, F₁ Fenda duragaylarida yoppasiga nihollar standart F₁ Sayxun duragayiga nisbatan 2 kun oldin, F₁ Pink Paradayz, F₁ Bahor duragaylarida esa 1 kun keyin paydo bo'ldi. F₁ Pink Star, F₁ Tovi Star, F₁ Tovi Roka, F₁ Ilya Muromes, Cherri Marvarid, Krasa Vostoka, Vitaminka Kokteylnaya nav va duragaylari F₁ Sayxun standarti bilan bir kunda unib chiqdi. Asosiy poyaning balandligi yoppasiga unib chiqishdan 90-kunida (124,3-131,2 sm) bo'lib, poya diametrining eng katta kattaligi (1,3-2,0-2,5 sm) kuzatildi, o'rganilgan pomidorning yirik mevali duragay namunalaridan eng uzun bo'g'im oraliqlari (4,2-4,8 sm), qishki-bahorgi aylanishda eng qalin bargli bo'g'im oraliqlari yoppasiga unib chiqqandan 90 kunda (20-24 dona barg) namunalardan: F₁ Lamiya-21,4 kg/m², F₁ Torri-20,8 kg/m², F₁ Fenda-20,3 kg/m², F₁ Menxir-20,2 kg/m² ajralib chiqdi. F₁ Sayxun standartida hosildorlik 19,2 kg/m² ni tashkil etdi. Qolgan duragaylarda bu ko'rsatkich pastroq bo'lib, 11,5-19,0 kg/m² ni tashkil etgan bo'lsa, mayda mevali cherri pomidorida Krasya Vostoka va Vitaminka Kokteylnaya navlarida 16,3-16,5 kg/m² mahsuldorlikda, cherri Marvarid navida esa 13,3 kg/m²;

kichik hajmli gidroponika sharoitida pomidorni yetishtirishda urug' ekish va ko'chat o'tqazish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda 4 ta muddatda olib borildi. Urug' ekishning erta muddatlarida (1.11) - nihollar 6-7 kunda, kech muddatlarda (1.12) - nihollar 10-12 kunda unib chiqqanligi aniqlandi. O'simlik bo'yi (115, 128, 103 sm), bo'g'im oraliqlari uzunligi (3,4-3,5-3,1 sm), barglanishi (20-20-19 dona), shingillar soni (6-7-6 dona), hosildorlik (21,44-24,32 kg/m²), mevaning o'rtacha vazni (160-180 g), eng yuqori rentabellik 71,26% tashkil etdi;

kichik hajmli gidroponikada pomidor yetishtirishda eng maqbul oziqlanish maydonini aniqlash uchun biz 4 ta ekish sxemasini taqqosladik: 120+20×20sm (3,6

o'sim/ m² (n)), 120+20×25sm (2,9 o'sim/ m²), 120+20×30sm (2,4 o'sim/ m²), 120+20×35sm (2,1 o'sim/ m²) uchta istiqbolli F₁ Sayxun, F₁ Videtta va F₁ Pink Paradayz duragaylarida. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, har uchala duragaylarda ham vegetatsiyaning 90, 120 va 150-kunlarida qalin (120+20×20 sm) ekishdan siyrak (120+20×35 sm) ekishga o'tish bilan o'simlik bo'yi qonuniy ravishda pasayadi. Asosiy poyaning bo'yi 90-kuni yoppasiga unib chiqqandan keyin (113-120-105 sm), bo'g'in oralig'i uzunligi (3,3-3,4-3,1 sm), poya diametri (1,2-1,2-1,3 sm), gul shingillari soni (7-7-7 dona), hosilning tovarligi (93,0-97,0%), rentabellik darajasi 62,01-92,22% ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu tadqiqotlar har yili Guliston Davlat Universitetining ilmiy-metodik komissiyasi tomonidan aprobatiya qilingan, ilmiy hisobotlarda muhokamalar qilingan, tajriba ma'lumotlari matematik ishlov berilgan va joriy etilgan. Shuningdek, Xalqaro, Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar va innovatsion yarmarkalarda ilmiy tadqiqot natijalari muhokama qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Sirdaryo viloyati sharoitida kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida qishki-bahorgi aylanishda tomchilatib sug'orish usulidan foydalanish; Sirdaryo viloyati sharoitida kichik hajmli gidroponika issiqxonasi uchun turli xil substratlarni tanlash; kichik hajmli gidroponikada yetishtirish uchun pomidorning yuqori mahsuldor nav va duragaylarini o'rganish va ajratish; kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida pomidor urug'ini ekish va ko'chatlarini o'tqazishning maqbul muddatlarini belgilash; kichik hajmli gidroponikada pomidor o'simligining maqbul oziqlanish maydonlarini belgilash.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat: Sirdaryo viloyati sharoitida kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida qishki-bahorgi aylanishda tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilgan; Sirdaryo viloyati sharoitida kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida uchun eng istiqbolli substratlar (perlit, vermikulit) tanlangan; kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida yetishtirish uchun pomidorning yuqori mahsuldor nav va duragaylari (F₁ Lamiya, F₁ Torri, F₁ Fenda, F₁ Menxir, F₁ Vlasko, F₁ Videtta, F₁ 453206, F₁ 45G508, F₁ Bahor, F₁ Sayxun, F₁ Pink Paradayz, Cherri Marvarid, Krasa Vostoka, Vitaminka Kokteylnaya) o'rganilgan va ajratilgan; kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida pomidor urug'ini ekish va ko'chatlarini o'tqazishning maqbul muddatlari (10 noyabr va 20 yanvar) belgilangan; - kichik hajmli gidroponika sharoitida pomidorni ekishning optimal sxemasi ((120+20) ×25sm-2.9 o'sim/m²) aniqlandi, takomillashtirilgan agrotexnologiya yaratildi, tavsiyalar ishlab chiqildi va joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jumladan:

kichik hajmli gidroponika issiqxonalar sharoitida pomidor o'simligi tomonidan mineral ozuqalarni singdirish dinamikasiga turli substratlarning ta'siri aniqlangan va 2021-2023-yillarda Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi "Ko'rgan xavus" MChJning 0,05 gektar hamda 2022-2024-yillarda Sayxunobod tumanidagi "Baxmallider chorvador" MChJning 0,05 gektar kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 09-apreldagi 05/06-04-148-son

ma'lumotnomasi). Natijada torf (nazorat) variantga nisbatan perlit va vermikulit substratlarida 22,12-23,90 kg/m² eng yuqori sifatli hosil olishga erishilgan;

O'zbekiston respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari davlat reyestrda ko'rsatilgan yopiq usul uchun mo'ljallangan pomidorning 35 ta nav va duragaylarining mahalliy duragay Sayxun F₁ ga nisbatan raqobatbardoshligi aniqlangan va Sirdaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 09-apreldagi 05/06-04-148-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik hajmli gidroponika issiqxonalar sharoitida vitaminlarga boy, hosildorligi, tovarbopligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi bo'yicha pomidorning "Lamiya F₁, Menxir F₁, Torri F₁, Videtta F₁, Vilasko F₁, Fenda F₁, Pink Paradays F₁" duragaylarini tanlab olishga erishilgan;

ekish sxemalari bo'yicha pomidorni qishki-bahorgi mavsumda kichik hajmli gidroponikada etishtirishda eng yaxshi natija 120+20×25 sm ekish sxemasi bo'lgan va Sirdaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 09-apreldagi 05/06-04-148-son ma'lumotnomasi). Natijada pomidorning tanlab olingan nav va duragaylardan o'rtacha 21,57-23,83 kg/m² hosildorlikga erishilgan;

pomidorni qishki-bahorgi mavsumda kichik hajmli gidroponika sharoitida urug' sepish va ko'chat ekish muddatlari asoslangan. Bunda eng yaxshi natija (urug' sepish) 10.11, (ko'chat o'tkazish) 20.01 sanalari nazoratga nisbatan 2-3 kun oldinroq unib chiqqan va hosilga kirishi aniqlangan. Sirdaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 09-apreldagi 05/06-04-148-son ma'lumotnomasi). Natijada 1m² maydondan 21,07-23,6 kg/m² tovarbop hosil olish imkonini bergan.

Yuqoridagi ma'lumotlar tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy ishlanmalar amaliyotga tatbiq etilganligi va fermer xo'jaliklarining ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan. Tadqiqotlar har yili Guliston davlat universiteti ilmiy kengashining maxsus komissiyasi tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib, ijobiy baholangan, yillik hisobotlar universitetning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishi universitetning kengaytirilgan ilmiy kengashida tinglangan, muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlari uchun chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta jumladan, mahalliy nashrlarda 3 ta, xorijiy nashrlarda 1 ta ilmiy maqola va 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan, hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, loyiha doirasida dissertatsiya ishining yakunlanishi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflanadi, ustuvorlikka muvofiqligi, rivojlanish yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va ilmiy tadqiqot ishlarining amaliy natijalari ochib berilgan, amalga oshirish natijalari, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tarkibiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Kichik hajmli gidroponikada pomidor etishtirish uchun substratlar tanlash, pomidor nav va duragaylarini tanlash va o'rganish, optimal urug' sepish va ko'chat ekish muddatlari hamda oziqlanish maydonlarini belgilashga oid”** deb nomlangan 1 bobi **“Adabiyotlar sharxi”** da jami 235 xorijiy, milliy ilmiy manbalar tahlili berilgan. va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhimligi xulosa qilingan.

Dissertasiyaning **“Tadqiqot o'tkazish joyi, sharoitlari, materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganish Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanidagi **“Baxmallider chorvador”** MChJ va Guliston tumanidagi **“Ko'rgan Xovus”** MChJlarining issiqxona xo'jaliklarida 2021-2024 yillarda kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida o'tkazildi.

Xususan, turli substratlarni, shuningdek, pomidor nav va duragaylarini o'rganish, ko'chatlarni ekish va ekishning eng maqbul muddatlarini hamda dala tajribalari sharoitlarida joylashtirish sxemasini aniqlash maqsadida, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, dala tajribalari va laboratoriya tahlillarini o'tkazish usullari qo'llanildi. Kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchovlar, ekinlarni hisobga olish, mevalarning biokimyoviy tarkibini tahlil qilish, F₁ pomidor duragaylarini etishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari batafsil yoritilgan. Olingan eksperimental ma'lumotlarning statistik tahlili dispersiya usuli asosida Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi. Dospexov B.A.ga (1985).

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Kichik hajmli gidroponika sharoitida turli substratlarda pomidor etishtirish texnologiyasi”** 3.1 bo'limda 3 ta duragaylar F1 Sayhun, F1 Videtta, F1 Pink Paradise, tadqiqot obyekti hisoblangan kichik hajmli substratlarda (torf (nazorat), kokos qioig'i, perlit, vermikulit, mineral paxta, qum bo'lgan) o'stirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.



1 –rasm Turli xil substratlarning tashqi ko‘rinishi

Ko‘chatlar ekish vaqtiga kelib 55 kunlik bo‘lgan, birinchi shingili gullab, ikkinchi shingili shonalash bosqichida bo‘lgan.

Turli substratlar bilan o‘tkazilgan tajribada fenologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, uchta F₁ Sayxun, F₁ Videtta va F₁ Pink Paradays duragaylarida urug‘larning ommaviy (75%) unib chiqishi perlit substratida 6-kuni, kech ommaviy unib chiqish esa qum substratida 8-kuni qayd etildi. Qolgan substratlarda kokos qipig‘i, vermikulit, mineral paxtalarda bu ko‘rsatkich barcha duragaylarida 6-7 kunni tashkil etdi.


Substratlar pomidorning o‘ssishi, rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. O‘simliklarning yalpi unib chiqishning 90-kunida o‘tkazilgan biometrik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kokos qipig‘i, perlit, vermikulit va mineral paxta substratlarda o‘stirilgan pomidor o‘simliklari nazorat variantga (torf-96 sm) nisbatan yuqori bo‘lgan. Ayniqsa perlit substratida o‘stirilgan 3 ta duragayning barchasi ajralib turdi. Shunday qilib, F₁ Sayxun duragayida nazoratga nisbatan 19 sm, F₁ Videtta duragayida -20 sm, F₁ Pink Paradizda 7 sm ga yuqori bo‘ldi, o‘simlikning eng past bo‘yi barcha 3 ta pomidor duragaylarida qum substratida F₁ Sayxun-85 sm, F₁ Videtta-105 sm, F₁ Pink Paradiz-88 sm bo‘ldi. Xuddi shunday qonuniyat yalpi unib chiqishning 120 va 150-kunlarida ham qayd etildi.

Yalpi unib chiqishning 90-kuni kokos qipig‘i, perlit, vermikulit, mineral paxta hamda nazorat torf substratlarida F₁ Sayxun, F₁ Pink Paradays duragaylarida 6 ta, qumda biroz kamroq - 5 ta shingil qayd etildi. Duragaylar kesimida F₁ Videtta duragayida -7 ta, qumda esa -6 ta shingil qayd etildi. Bu, albatta, hosil miqdoriga ham ta’sir qiladi.

Odatda, turli substratlarni baholashda yakuniy ko‘rsatkich hosildorlik hisoblanadi. Biz tomonimizdan eng yuqori umumiy tovarbop hosili perlit substratida, F₁ Sayxun-22,12 kg/m², F₁ Videtta-23,90 kg/m², F₁ Pink Paradiz-23,23 kg/m² duragaylarida olinganligi aniqlandi. Hosilning biroz pasayishi vermikulit substratida (mos ravishda 21, 84; 23,48 va 22,45 kg/m²) kuzatildi.

Eng past tovarbop hosildorlik qum substratida F₁ Sayxun- 18,96, F₁ Videtta-20,96, F₁ Pink Paradayz 20,05 kg/m² duragaylarida aniqlandi. Qolgan substratlarda

(kokos qipig'i, mineral paxta) pomidor tovarbop hosildorligi 3 ta duragayda ham oraliq holatni egalladi (2-rasm).



2-rasm. Turli substratlarning F1 pomidor duragaylarining tovarbop hosildorligiga ta'siri.

Turli xil substratlar mevalarning biokimyoviy tarkibiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi, masalan, pomidorning barcha 3 ta duragaylarida quruq moddalar, umumiy shakar, askorbin kislotasining eng yuqori miqdori perlit substratida qayd etildi: F₁ Sayxun - 5,56%; 5,28%; 24,8 mg%, F₁ Videtta - 5,52%; 2,84%; va 24,8 mg%, F₁ Pink Paradayz - 5,15%; 3,7%; va 26,8 mg%.

Ushbu substratning afzalligi yana shunda namoyon bo'ldiki, tajribaning ushbu varianti bo'yicha pomidor mevalarida barcha duragaylarda nitratlarning eng kam miqdori 18,8-24,9 mg/kg (REK 60 mg/kg) aniqlandi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash bo'limida pomidor etishtirishning xarajatlari, issiqxonadagi substrat qiymati va qo'shimcha hosil qiymatini taqqoslash hamda sof daromad miqdorini aniqlash orqali aniqlangan. Hosil qiymati 2021-2024-yillar uchun o'rtacha sotish narxlari bo'yicha olindi. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, barcha variantlar bo'yicha issiqxona pomidorining o'rtacha sotish narxi bir xil bo'lib, 15000 so'm/kg ni tashkil etdi. Barcha substratlarda duragaylar sof daromad olishni ta'minlashi aniqlandi, lekin barcha duragaylar bo'yicha eng yuqori sof daromad perlitli substratda olindi.

Masalan, perlit substratidagi F₁ Sayxun duragayida mahsulot olingan sof daromad 147290 so'm/m² ni, nazorat variantida esa bu ko'rsatkich 123450 so'm/m² ni, rentabellik - 79,83% ni, nazorat variantida esa 66,86% ni tashkil etdi.

Yuqori sof daromad vermikulit variantida ham 143360 so'm/m², rentabellik 77,81%, kokos qipig'i 133206 so'm/m², rentabellik 72,14%, mineral paxtada 127150 so'm/m², rentabellik 69,07% bo'lgan. Eng kam sof daromad qum substratida-100800 so'm/m² va rentabellik 54,90% ni tashkil etdi. Shu kabi natijalar boshqa o'rganilgan duragaylar bo'yicha ham olingan.

Shunday qilib, tovar mahsulot chiqishi, mevaning o'rtacha og'irligi va natijada hosildorligi bo'yicha, ya'ni pomidorning iste'mol sifatlariga ijobiy ta'siri bo'yicha substratlarni quyidagi kamayib boruvchi qatorga joylashtirish mumkin: perlit > vermikulit > torf > kokos qirindisi > mineral paxta > qum.

Dissertatsiyaning **“Kichik hajmli gidroponika issiqxonalarda yetishtirishda pomidorning istiqbolli nav va duragaylarini tanlash”** deb

nomlangan bo'limida pomidor nav va duragaylarini tanlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qishki-bahorgi mavsumda kichik hajmli gidroponika issiqxonalarida etishtirishga mo'ljallangan pomidorning 35 ta nav va duragaylari o'rganilib, ulardan eng istiqbolli 18 ta nav va duragaylar ajratib olindi.

Kichik hajmli gidroponik issiqxona uchun mo'ljallangan issiqxona navlari (duragaylari) yuqori mahsuldorlik, mevalarning yaxshi sifati bilan bir qatorda kasalliklarga va issiqxonalarda o'ziga xos mikroiklimning o'zgarishiga kompleks chidamlilikka: uzluksiz meva berish, uzoq vaqt gullash va meva berish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Nav va duragaylarni baholashda fazalararo davrlar katta ahamiyatga ega, chunki o'suv davrining davomiyligi shunga bog'liq. Duragaylar orasidagi farqlar o'simliklar hayotining dastlabki kunlaridanoq kuzatilgan. Shunday qilib, F₁ Videtta, F₁ 453206, F₁ 45G508, F₁ Lamiya, F₁ Menxir, F₁ Torri, F₁ Vilasko, F₁ Fenda duragaylarida ommaviy nihollar standart F₁ Sayxun duragayiga nisbatan 2 kun oldin, F₁ Pink Paradiz, F₁ Bahor duragaylarida esa 1 kun kechroq paydo bo'ldi. F₁ Pink Star, F₁ Tovi Star, F₁ Tovi Roka, F₁ Ilya Muromes, Cherri Marvarid, Krasa Vostoka, Vitaminka kokteylnaya nav va duragaylari F₁ Sayxun standarti bilan bir kunda unib chiqdi.

Bu farq chin barglarning paydo bo'lish fazalarida ham saqlanib qoldi. Biometrik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, barcha nav va duragaylar tahlilning barcha muddatlarida asosiy poya balandligiga ega bo'lgan. Masalan, 90-kuni ularda asosiy poyaning balandligi 113,6-131,2 sm, birinchi standart F₁ Sayxun duragayida 111,2 sm, ikkinchi standart cherri Marvarid navida 114,0 sm ni tashkil etdi. Bu qonuniyat keyingi muddatlarda ham saqlanib qoldi.

Barcha sinalgan nav va duragaylar yalpi unib chiqishning 150-kunida 34-37 dona barglarga ega bo'ldi, F₁Tovi Roka va F₁ Ilya Murometsda barglarning kamroq bo'lishi kuzatildi - 34 dona. Pomidorning nav va duragaylarida 150-kuni shingillar soni bo'yicha biroz farq kuzatildi, u 13-14 donagacha, F₁ Sayxun duragayida 13 donagacha o'zgarib turdi. Tabiiyki, ko'p miqdordagi shingillar yuqori mahsuldorlikni ham belgilab beradi (1-jadval).

Hosildorlik bo'yicha F₁ Lamia 21,4 kg/m², F₁ Torri 20,8 kg/m², F₁ Fenda 20,3 kg/m², F₁ Menxir 20,2 kg/m² duragaylar eng mahsuldor bo'lib chiqdi.

F₁ Vilasko 19,9 kg/m², F₁ Videtta 19,8 kg/m², F₁ 453206 19,3 kg/m², F₁ 45G508 19,1 kg/m², standart F₁ Sayxun 19,2 kg/m², mayda mevali cherri pomidori bo'yicha Krasya Vostoka va Vitaminka kokteylnaya 16,3-16,5 kg/m², standart cherri Marvarid 13,3 kg/m², qolgan duragaylarda bu ko'rsatkich 16,6-19,0 kg/m² oralig'ida o'zgarib turdi.

Nafaqat yuqori, balki sifatli hosil olish ham juda muhim. Duragayning istiqbolliligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri mevalarning biokimyoviy tarkibi hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, hosildorlik bo'yicha istiqbolli F₁ Lamiya, F₁Torri, F₁ Fenda, F₁ Menxir, F₁ Vilasko, F₁ Videtta va boshqa duragaylar mevasida quruq modda miqdori yuqori foizni tashkil etadi. Quruq moddalarning yuqori miqdori F₁ Pink Star (6,50%), F₁ Bahor (6,43%), F₁ Ilya Muromes (6,30%) duragaylarida ham qayd etildi.

1-jadval

Kichik hajmli gidroponikada etishtirishda pomidor mevalarining hosildorligi
va sifati (2021-2024-yillar)

№	Nav va duragaylar	Hosildorlik, (kg/m ²)					Quruq modda,%	Umumiy shakar, %	Askorbin k-ta mg %	Nitratli azot, mg/kg
		2021- 2022 yy.	2022- 2023 yy.	2023- 2024 yy.	O'rtacha yillar kesimida	ertagi 1.05 gacha				
St ₁	F ₁ Sayhun	19,5	18,8	19,2	19,2	6,6	5,90	3,50	24,2	45
1	F ₁ Videtta	19,8	19,6	20,1	19,8	7,1	6,20	3,40	24	46
2	F ₁ 453206	19,3	19,5	19,4	19,3	4,9	5,72	3,30	23,6	40
3	F ₁ 45Γ508	19,4	18,9	19,0	19,1	4,8	5,68	3,40	22,8	37
4	F ₁ Pink Star	18,0	17,2	17,7	17,6	6,0	6,50	2,95	20,4	48
5	F ₁ Tovi Star	18,6	18,1	18,2	18,3	8,2	5,80	3,20	23,1	38
6	F ₁ Lamiya	21,7	21,3	21,1	21,4	8,5	6,34	2,79	24,8	33
7	F ₁ Menhir	20,7	20,2	19,8	20,2	8,1	7,07	3,24	23,7	31
8	F ₁ Torri	20,8	21,0	20,5	20,8	7,5	5,90	3,28	20,4	33
9	F ₁ Vilasko	20,4	19,6	19,8	19,9	7,2	7,10	3,56	23,5	42
10	F ₁ Pink Paradayz	18,9	18,4	18,5	18,6	7,6	5,60	3,92	24,0	39
11	F ₁ Tovi Roka	18,8	19,2	18,4	18,8	7,4	5,90	3,14	22,6	46
12	F ₁ Fenda	20,6	20,4	20,0	20,3	7,2	6,80	3,50	23,7	32
13	F ₁ Bahor	18,8	18,9	19,3	19,0	7,1	6,43	3,45	24,1	42
14	F ₁ Ilya Muromets	17,0	16,2	16,6	16,6	6,5	6,30	4,10	22,2	47
St ₂	cherri Marvarid	13,7	13,3	12,3	13,3	8,3	6,50	3,40	22,0	38
15	Krasa Vostoka	16,5	16,0	16,4	16,3	9,0	7,60	3,60	23,8	43
16	Vitaminka koktelnaya	16,3	16,8	16,5	16,5	9,5	7,50	3,60	23,6	46

Tahlil qilinayotgan pomidor duragaylarida qandlar, askorbin kislotasining miqdori ham ancha yuqori ekanligi qayd etildi. Nitratli azot miqdori istiqbolli duragaylarda REMdan (O'zbekiston sharoiti uchun 60 mg/kg mahsulot) past bo'ldi.

